



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOMIDAN
HAL QILUV QARORI**

Chiroqchi tumani 2022-yil 20-aprel 4-1807-2201/591-sonli ish

Chiroqchi tuman iqtisodiy sudining sudyasi A.Qodirov raisligida, sudya yordamchisi A.Chuliyevning kotibligida, da'vogar vakillari O.Maxmudov hamda R.Abdirayemov (*ishonchnoma asosida*), uchinchi shaxs "██████████" MChJ vakili U.Juraboev (*ishonchnoma asosida*)lar ishtirokida, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasining da'vogar "██████████" MChJ XK manfaatida, javobgar "██████████" fermer xo'jaligi hisobidan 6.906.496 so'm asosiy qarz undirish to'g'risidagi da'vo arizasi bo'yicha ishni "██████████" MChJ binosida ochiq sayyor sud majlisida ko'rib chiqib, quyidagilarni

ANIQLADI:

O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasi (bundan buyon matnda – palata deb yuritiladi) da'vogar "██████████" MChJ XK (bundan buyon matnda - da'vogar deb yuritiladi) manfaatida sudiga da'vo ariza bilan murojaat qilib, javobgar "██████████" fermer xo'jaligi (bundan buyon matnda – javobgar deb yuritiladi) hisobidan 6.906.496 so'm asosiy qarz undirishni so'ragan.

Sudning 2022-yil 11-apreldagi ajrimi bilan "██████████" MChJ ishga nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs sifatida jalb qilingan.

Sud majlisi muhokamasida ishtirok etgan da'vogar vakillari da'vo talabini qo'llab-quvvatlab, javobgar bilan shartnoma tuzganliklarini, shartnomaning 4.3 bandiga asosan neft mahsulotlarini berganligini, ushbu mahsulot javobgar tomonidan hisob-fakturalar orqali qabul qilib olinganligini bildirib, da'voni to'liq qanoatlantirishni so'radi.

Sud majlisi muhokamasida ishtirok etgan uchinchi shaxs vakili da'vogarning da'vosi asosli ekanligini, chunki javobgar hisob-fakturani qabul qilib olganligi mahsulotni qabul qilib olganligini anglatishini bildirib, ish bo'yicha qonuniy qaror qabul qilishni so'radi.

Javobgar ishni ko'rish vaqti va joyi to'g'risida tegishli tartibda xabardor qilingan bo'lsa-da, sud majlisiga kelmadi. Sud O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi (bundan buyon matnda – IPK deb yuritiladi)ning

128, 170-moddasiga asosan ishni uning ishtirokisiz ko'rib chiqishni lozim topdi.

Ish hujjatlaridan ko'rinishicha, da'vogar va javobgar o'rtasida 2020-yil 6-yanvarda "Paxta xom ashyosi va urug'lik paxta xarid qilish bo'yicha" shartnoma tuzilgan bo'lib, ushbu shartnomaning 4.3 bandiga ko'ra, "xaridor" bajariladigan agrotexnik tadbirlar uchun muddatidan kelib chiqqan holda, dalada monitoring ishlari amalga oshirilgandan so'ng "xo'jalik"ning ehtiyojiga ko'ra, tasdiqlangan agrotexkarta asosida (agar urug' hamda yig'im terim mavsumi uchun kerakli materiallar bo'nuk hisobiga olinsa, ularni qiymatini hisobga olgan holda) mahsulot qiymatining 60 foizi miqdorigacha bo'nak (avans) mablag'lari bilan ta'minlash majburiyatini olgan.

Da'vogar tomonidan shartnoma shartlari to'liq bajarilib, javobgarga bo'nak (avans) tariqasida 6.906.496 so'mlik neft, yoqilg'i-moylash mahsulotlari yetkazib berilgan. Biroq, javobgar tomonidan shartnoma shartlari to'liq bajarilmasdan bo'nak (avans) tariqasida berilgan neft, yoqilg'i-moylash mahsulotlari haqini to'lamasdan da'vogardan qarzdor bo'lib qolgan.

Da'vogarning qarzdorlikni to'lab berish to'g'risidagi talabnomasi javobgar tomonidan oqibatsiz qoldirilgan.

Natijada ushbu nizo kelib chiqib, palata da'vogarning manfaatida sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilgan.

Da'vo talabi asoslidir:

Chunki, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (bundan buyon matnda - FK deb yuritiladi) 8, 234-moddalariga ko'ra majburiyatlar shartnomadan, ziyon yetkazish natijasida hamda ushbu Kodeksda ko'rsatilgan boshqa asoslardan kelib chiqadi.

Mazkur holatda taraflar o'rtasidagi ushbu nizo shartnomaviy majburiyatni bajarmaganlik oqibatida kelib chiqqan.

Vaholanki, FKning 236-moddasida majburiyatlar majburiyat shartlariga va qonunchilik talablariga muvofiq, bunday shartlar va talablar bo'lmaganida esa - ish muomalasi odatlariga yoki odatda qo'yiladigan boshqa talablarga muvofiq lozim darajada bajarilishi, 237-moddasiga ko'ra majburiyatlarni bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga yo'l qo'yilmaydi.

FKning 465-modda ko'ra, kontraktatsiya shartnomasiga muvofiq qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtiruvchi qishloq xo'jaligi mahsulotini qayta ishlash yoki sotish uchun bunday mahsulotni xarid qiladigan shaxsga - tayyorlovchiga shartlashilgan muddatda topshirish (topshirib turish) majburiyatini oladi, tayyorlovchi esa bu mahsulotni qabul qilish (qabul qilib turish), uning haqini shartlashilgan muddatda muayyan bahoda to'lash (to'lab turish) majburiyatini oladi.

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunining 13-moddasiga ko'ra, pul, tovar-moddiy boyliklarni va boshqa boyliklarni qabul qilish hamda berish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan hujjatlar, kredit va hisob-kitob majburiyatlari, shuningdek moliyaviy va

boshqa hisobotlar buxgalteriya hisobi sub'ektining rahbari tomonidan yoki u belgilaydigan shaxslar tomonidan imzolanadi.

Mazkur 6.906.496 so'm asosiy qarzdorlik qabul qilib olingan hisob-faktura bilan ham o'z tasdig'ini topgan.

"Davlat boji to'g'risida"gi Qonunga ko'ra iqtisodiy sudlarga beriladigan mulkiy xususiyatga ega da'vo arizalaridan da'vo bahosining 2 foizi miqdorida, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda davlat boji to'lanadi.

IPKning 118-moddasi sud xarajatlari ishda ishtirok etuvchi shaxslarning qanoatlantirilgan da'vo talablari miqdoriga mutanosib ravishda ularning zimmasiga yuklatiladi.

Bayon etilganlarga ko'ra sud, da'vo talabini to'liq qanoatlantirib, javobgar hisobidan da'vogar foydasiga 6.906.496 so'm asosiy qarz, oldindan to'langan 21.600 so'm pochta xarajati, Respublika budjetiga 270.000 so'm davlat boji undirishni lozim topdi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 236, 237, 465-moddalarini hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 112-113, 118, 176-179, 186, 192-moddalarini qo'llab, sud

q a r o r q i l d i :

Da'vo talabi to'liq qanoatlantirilsin.

Javobgar "████████████████████" fermer xo'jaligi hisobidan:

Da'vogar "████████████████████" MChJ XK foydasiga 6.906.496 so'm asosiy qarz, oldindan to'langan 21.600 so'm pochta xarajati;

Respublika budjetiga 270.000 so'm davlat boji undirilsin.

Hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgach ijro varaqasi berilsin.

Mazkur hal qiluv qarori ustidan bir oylik muddat ichida apellatsiya tartibida shikoyat berish (protest keltirish) mumkin.

Sudya

A.Qodirov